

# Chorvachilik Muammolari, Cho'l-Yaylov Chorvachiligining Bosqichlari

S. M. Isamov<sup>1</sup>

**Anatatsiya:** Chorvachilikni barqaror rivojlantirish masalalari klaster boshqaruv shaklini joriy etish asosida tayyor mahsulot ishlab chiqarishdan bozorga chiqarishgacha, shuningdek, ushbu sohaning barcha yo'nalishlari bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlari uchun yuqori malakali kadrlar tayyorlash asosida o'rganilmogda.

Olib borilgan tadqiqotlar ko'rsatdiki, qorako'l qo'yalarining ozuqaga bo'lgan talabi yaylov hisobidan kamida 85 foiz ta'minlanishi o'rniga atigi 50-55 foizga qondirilishi bir bosh qo'yga ozuqa uchun o'rtacha 21-22 ming so'm ortiqcha xarajat qilinishini, ishlab chiqarish fondlarining 60-65 foizga eskirganligi ona qo'yarning atigi 30 foizigina sun'iy urug'lantirilayotganligini bildiradi. Bular esa, tarmoqning barqaror rivojlanishga imkoniyat bermayapti. SHuningdek, zooveterinariya punkti – chorva mollari joylashgan hudud maydonining katta-kichikligiga qarab 8,0-12,0 ming bosh shartli qo'ylar o'rniga 48,4 ming bosh yoki 4-6 barobar ko'p shartli qo'y larga xizmat ko'rsatmoqda. Respublikada bir bosh shartli qo'yga ko'rsatilgan zooveterinariya servis xizmati 15,0 ming so'm o'rniga atigi 80,0 so'mni tashkil qilgan.

Ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning asosiy qismini qayta ishlash quvvatlari yetishmayotganligi, qo'y suti, mol terisi va jun kabi mahsulotlardan deyarli foydalanimayotganligi va mahsulotlar chuqur qayta ishlanmasdan, katta qismi xomashyo sifatida sotilayotganligi cho'l-yaylov chorvachiligi quyi majmuasi raqobatbardoshligining keskin pasayishiga sabab bo'lmoqda. Masalan, Navoiy viloyatida go'shtni qayta ishlash 18-20 foizdan, junni 21-21, mol terilari 30 foizdan oshmayapti. Qorako'l teri qayta ishlash oshlash, junni esa yuvish bilan yakunlanmoqda, xolos. Ulardan tayyor buyumlar ishlab chiqarish deyarli yo'lga qo'yilmagan. Natijada, junning tovarlik darajasi 66,9 foizni, qorako'l teri 34,7 va mol terilari 9,9 foizni tashkil qilgan, xolos, va ishlab chiqilgan 2783,7 ts jun, 3649 dona qorako'l teri va 15775 dona mol terilari o'z xaridorlarini topmagan.

Demak, cho'l-yaylov chorvachiligi xo'jaliklari barqaror rivojlanishini chegaralab qo'yayotgan omillardan yana biri yetishtirilgan mahsulotlarni sotish muammosidir. Ichki bozorda ham tashqi bozorda ham xomashyo emas, balki chuqur qayta ishlangan mahsulotlarga kuchli talab mavjudligini olib borilgan tadqiqotlar ko'rsatdiki, Buxoro, To'rtko'l, Nurota shaharlarida va ayrim xo'jaliklarda faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar cho'l-yaylov chorvachiligi mahsulotlaridan turli xildagi buyumlar tayyorlab ichki va tashqi bozorlarda sotishdan 4-5 barobar ko'proq daromad olishmoqda. Qo'shi Qozog'iston Respublikasida ham junni qayta ishlash korxonasi ishga tushirilganiga qadar xaridor topilgandagina 1 kilogramm dag'al jun 5 tengedan sotilgan. Hozirda esa 1 kg. dag'al junni sotish narxi 18 tengegacha ko'tarilgan.

Tadqiqotlar ko'rsatmoqdaki, qorako'l teridan tayyor mahsulot tayyorlash uchun sarflangan xarajatlarning 62,4 foizi uni ishlab chiqarish, 37,6 foizi qayta ishlashga sarflangan. Ammo, qorako'l terini qayta ishlashga 37,6 foiz xarajat qilgan holda, tayyor mahsulot ishlab chiquvchi 86,7 foiz foydani o'zlashtirmoqda, mahsulotni ishlab chiqaruvchi esa atigi 13,3 foiz foydaga egalik qilmoqda. Go'shtni qayta ishlash uchun uni ishlab chiquvchi 73,2 foiz xarajat sarflagani holda foydaning faqatgina 11,2 foizini, qayta ishlovchi esa 26,8 foiz xarajat sarflab foydaning 88,8 foizni olgan. Junni qayta ishlovchi olingan foydaning 86,9 foizini o'zlashtirgan holda 13,3 foiz ishlab chiqarish xarajatlarini sarflagan, xolos. Demak, qayta ishlovchi korxonalar mustaqil xo'jalik yurituvchi sub'ekt sifatida, eng muhim monopol mavqedan foydalaniib, mahsulot ishlab chiqaruvchi xo'jaliklarning 70-75 foiz daromadlarini asossiz o'zlashtirib olishmoqda. Iqtisodiyadolatsizlikka barham berish maqsadida tovari sotishdan olinadigan foya xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning tayyor mahsulotni tayyorlash va sotish uchun qo'shgan hissasiga mos ravishda taqsimlanishiga erishish lozim.

Ta'kidlanganlar bilan birgalikda cho'l-yaylov chorvachiligi quyi majmuasi uchun maxsus malakali kadrlar tayyorlash tizimi shakllanmaganligi, ilmiy tadqiqot va naslchilik ishlarining qoniqarsizligi, marketing(sotish) xizmati tashkil etilmaganligi kabi yirik muammolarni o'zaro tashkiliy-iqtisodiy bog'liq, xususan, ishlab chiqish va bozor xizmatlarini ko'rsatuvchi, mahsulot ishlab chiqaruvchi, xomashyoni qayta ishlovchi, tayyor mahsulotlarni sotuvchi, ilmiy va yuqori malakali mutaxassis kadrlar tayyorlash bo'yicha xizmat ko'rsatuvchi muassasalar, korxonalar, xo'jaliklar faoliyatlarini bir texnologik tizimga birlashtiruvchi klaster boshqaruv texnologiyasini joriy etish orqali yechish mumkin.

Buning uchun cho'l-yaylov chorvachiligi quyi majmuasi uchun yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish, dunyo standartlari darajasidagi zamonaviy talablarga mos zooinjener-qorako'lchi, veterinar, injener-texnologik, injener-texnik mutaxassislar bilan birgalikda o'rta maxsus mutaxassislarini yetishtirish, qayta tayyorlash, malakasini oshirish bo'yicha barqaror tizim yaratilishi lozimi.

<sup>1</sup> Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti

Iqtisodiyotda klaster, bu – nafaqat raqobat,balki mavjud muammolarning yechimiga jamoaviy yondashgan holda mavjud xomashyo, energiya va mehnat zaxiralaridan samarali foydalani, faol bilimlar almashinuviga asoslangan turg'un ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar va o'zaro ishchonchli hamkorlikda bir texnologik tizimga birlashgan ishlab chiqarish korxona va tashkilotlari guruhi shakllanishi,demakdir.

Buxoro viloyatida “Komteks pposy” MCHJ shaklida tashkil etilayotgan, mahalliy hokimlik tomonidan boshqariluvchi qo'y junini sanoat usuli asosida qayta ishlaydigan klasterga kiritilayotgan sarmoya asosan mavjud yigirish, to'quv va tikuv-trikotaj quvvatlarini joyida yiriklashtirish va modernizatsiya qilishga yo'naltiriladi. Bu majmua ichki va tashqi bozorga yiliga 1,5 mln. dona tayyor mahsulot, 2,5 ming tonna kalava ip, qariyb 4 mln. Pogono-metr to'qima mahsulotlari yetkazib berish imkonini yaratadi. Ammo, qorako'l qo'ylaridan jun bilan birgalikda, uning asosiy mahsuloti bo'lgan noyob qorako'l teri, go'sht, qo'y terilar,sut va boshqa mahsulotlar ham olinadi.

Alovida mahsulot turi bo'yicha emas, balki cho'l-yaylov chorvachiligi quyi majmuasining butunicha bitta klasterga qamrab olinishi maqsadga muvofiq. Bunga sabab birinchidan, qorako'l teri, jun, go'sht, sut va qo'y terilar qorako'l qo'ylaridan olinishi bilan birgalikda, echkichilik, qoramolchilik, tuyachilik, yilqichilik, parrandachik kabi sohalardan ham mahsulotlar olinadi, ikkinchidan, faqat bir mahsulot turi bo'yicha klaster tashkil etish esa, boshqa mahsulot turlarining chuqur qayta ishlanib, tayyor tovar mahsulotga aylanishini ta'minlamaydi, uchinchidan, klaster tashkil etilgan mahsulot turiga iqtisodiy resurslarning asosiy qismi yo'naltirilishi oqibatida ishlab chiqarish texnologiyasining muqarrar buzilishiga olib keladi. Klasterni boshqarish yuqori malakali mutaxassislardan shakllantirilgan maxsus muvofiqlashtiruvchi kengash tomonidan amalga oshirilishi maqsadga muvofiq. Bu kengash klaster hududida tayyorlanadigan har bir tayyor mahsulot turi bo'yicha guruhlardan iborat bo'lishi maqsadga muvofiq. Kengash “CHo'l-yaylov chorvachiligi klasteri”ning istiqbolda barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish strategiyasini ishlab chiqish va uning amalda bajarilishini muvofiqlashtirish vazifasini bajaradi.

Klaster qamrab olgan hududda yuqori samarador texnika va texnologiyalarni ishlab chiqish, joriy etish, ilmiy-amaliy muammolar yechimlari tegishli ilmiy-tadqiqot muassasalari, yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash oliv va o'rta maxsus ta'llim muassasalarini bilanhamkorlikda amalga oshirilishi tashkil etiladi. CHo'l-yaylov o'simliklari urug'larini yetishtiruvchi va innovatsion texnologiyalarni qo'llash asosida yaylovlar hosildorligini (2,5-3,0 ts/ga o'rniga) 20-25 ts/ga ko'tarilishini ta'minlash hamda suv ta'minoti tizimini shakllantiruvchi, ozuqa tayyorlovchi, uni qayta ishlovchi, zooveterinariya xizmatlarini amalga oshiruvchi, qo'ylar junini qirquvchi, qo'zilarni qorako'l teri uchun so'yuvchi, go'shtni, junni, qorako'l terini, mol terilarini, qo'y va boshqa mollar sutini qayta ishlovchi va tayyor tovar mahsulotlari tayyorlovchi hamda ularni sotish bilan shug'ullanuvchi korxonalarini barpo etishni taqozo qiladi.Natijada minglab yangi ish o'rinnari yaratiladi, olinayotgan daromad esa 4-5 barobarga ko'payadi, ya'ni hududning barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi uchun imkoniyatlар vujudga kelishi bilan birgalikda cho'l-yaylov chorvachiligi quyi majmuasi raqobatbardoshligi kuchayishini ta'minlaydi.

**Xulosa.** CHo'l-yaylov chorvachiligining barqaror rivojlanishini ta'minlovchi klaster boshqaruv texnologiyasini joriy etish maqsadga muvofiq, ya'ni:

- alovida mahsulot turi bo'yicha emas, balki cho'l-yaylov chorvachiligi quyi majmuasining bitta klasteriga qamrab olinishni;
- klasterni boshqarish yuqori malakali mutaxassislardan shakllantirilgan maxsus muvofiqlashtiruvchi kengash tomonidan amalga oshirilishni;
- olingan foyda klaster tarkibiga kiruvchi korxonalarining tayyor mahsulotga qo'shgan hissasiga mos ravishda taqsimlashni tavsiya qilamiz.

#### **Adabiyotlar:**

1. Kayumov F.K. I DR. Karakulevodcheskiy podkompleks i yego rol v formirovani kon'yunkturya tyinka. T. "Uzinformagromprom". 1993 g.
2. Ibragimov YU. Kanada chorvachiligi: bugungi holati va rivojlanish istiqbollari. Zooveterinariya, J. №2, 2012. 38-43-b.
3. Tangirov A.E. va boshqalar. CHo'l-yaylov chorvachiligi boshqaruvini takomillashtirish. "Agroilm", J. 2-3(34-35) son, 2015. 41-42-b.